

Buxoro viloyatida 2020-yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari

2020-yilning yanvar-fevral oylarida o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 485,3 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘sish sur’ati 106,3 % ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida korxona va tashkilotlarning turi bo‘yicha qurilish ishlari tarkibi, jamiga nisbatan % da



Korxona va tashkilotlarning turi bo‘yicha qurilish ishlari hajmi

Yirik qurilish tashkilotlari - 60,8 mlrd. so‘m

Kichik korxona va mikrofirmalar - 363,5 mlrd. so‘m

Norasmiy sektor - 61,0 mlrd. so‘m

Hududlar kesimida qurilish ishlarinining o‘sish sur’ati, % da




Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Buxoro viloyatida o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 485,3 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish surati 106,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik qurilish tashkilotlari tomonidan o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 60,8 mlrd. so‘mni, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 363,5 mlrd. so‘mni hamda norasmiy sektor bo‘yicha 61,0 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Mos ravishda yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo‘yicha o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati 86,9 % ni, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo‘yicha o‘tgan yilning mosdavriga nisbatan o‘sish sur’ati 110,7 % ni va norasmiy sektor bo‘yicha o‘sish sur’ati 104,8 % ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan jami qurilish ishlarining hajmida yirik qurilish tashkilotlarning ulushi 2,8 % ga kamaygan, kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi 3,1 % ga oshgan, norasmiy sektor ulushi 0,4 % ga kamaygan.


**2020-yil yanvar-fevral oylarida korxona va tashkilotlarning
turi bo‘yicha qurilish ishlari tarkibi,
jamiga nisbatan % da**



Umumiy hajmda qurilish ishlarning turi bo'yicha taqsimoti

2020-yil yanvar-fevral,

jamiga nisbatan % da



- yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish

- kapital ta'mirlash, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari

2019-yil yanvar-fevral,

jamiga nisbatan % da



- yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish

- kapital ta'mirlash, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari

Qurilish ishlarning umumiy hajmidan 53,8 % i yoki 260,9 mlrd. so'm - yangi qurilish, rekonstruksiya, kentgaytirish va texnik qayta qurollantirishga (o'tgan yilning mos davrida 53,6 % yoki 223,2 mlrd. so'm), 46,2 % i yoki 224,4 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davrida 46,4 % yoki 193,2 mlrd. so'm) - kapital ta'mirlash, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar ijtimoiy soha obyektlarini (maktablar, kollejlar, sport hamda sog‘liqni saqlash ob'yeqtlar va boshqalar) qurishda, namunali hamda arzonlashtirilgan va sotish uchun mo‘ljallangan turar joylarni qurishda, avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash ishlarida qatnashmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining hajmi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bino va inshootlarni qurilishida 285,9 mlrd. so‘m, yoki qurilish ishlarining umumiyligi hajmiga nisbatan 58,9 % ni, fuqarolik obyektlarini qurilishiga 103,1 mlrd. so‘m, umumiyligi hajmaga nisbatan 21,3 % ni va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo‘yicha 96,3 mlrd. so‘m, yoki umumiyligi hajmaga nisbatan 19,8 % ishlar bajarildi.

	Amaldagi narxlarda	Umumiyligi hajmaga nisbatan, % da	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha:			<i>mlrd. so‘mda</i>
			Bino va inshootlarni qurilishi	Fuqarolik obyektlarini qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish	
Viloyat bo‘yicha jami	485,3	100,0	285,9	103,1	96,3	
Davlat mulki	31,0	6,4	0,3	30,2	0,5	
Nodavlat mulk	454,3	93,6	285,6	72,9	95,8	


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihibalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish

ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi.

Fuqarolik qurilishi ob'yektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari hajmi o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga ko‘paydi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining
umumiylajmiga nisbatan ulushi,
jamiga nisbatan % da**



**2020-yilning yanvar-fevral oylarida
mulkchilik shakli bo‘yicha qurilish ishlari hajmi**

Nodavlat mulkchiligi bilan qurilish korxonalari tomonidan 454,3 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 107,6 % ni tashkil

etdi. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 93,6 % ni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatgichga nisbatan 1,1 % punktga ko‘paydi.

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan 31,0 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur`ati 89,9 % ni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 6,4 % ni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 % punktga kamaydi.

	2020-yil yanvar-fevral uchun, mlrd. so‘m	O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan ulushi, % da
Jami mulkchilik shakli bo‘yicha	485,3	106,3	100,0
Davlat mulki	31,0	89,9	6,4
Nodavlat mulk	454,3	107,6	93,6

2020-yil yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

Viloyatda bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori o‘rinni Buxoro shahri egalladi. Bajarilgan qurilish ishlari hajmi 117,5 mlrd. so‘m, o‘sish sur`ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,5 % ni tashkil qildi. Keyingi o‘rinni G‘ijduvon tumani egalladi. Mazkur tumanda qurilish ishlari 45,8 mlrd. so‘mni, o‘sish sur`ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 108,6 % ni tashkil qildi. Qorovulbozor tumanida 44,2 mlrd. so‘mlik

qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur`ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni tashkil qildi.


	2020-yil yanvar-fevral, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-fevral, mlrd. so‘m	O‘sish sur`ati, % da
--	---	---	---------------------------------

Jami	485,3	416,4	106,3
Buxoro sh.	117,5	100,5	106,5
Kogon sh.	17,5	15,9	100,5

tumanlar:

Olot	28,8	25,6	102,4
Buxoro	32,4	28,1	105,2
Vobkent	14,6	12,0	110,6
Gijduvon	45,8	38,7	108,6
Kogon	40,5	35,5	103,9
Qorako‘l	17,1	14,5	107,4
Qorovulbozor	44,2	38,8	103,7
Peshko‘	23,0	19,0	110,3
Romitan	32,4	27,3	107,9
Jondor	35,2	30,6	105,8
Shofirkon	36,3	29,9	110,5

2020-yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida qurilish ishlarining ulushi, *jamiga nisbatan % da*



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining umumiy hajmida 24,2 % ulush bilan Buxoro shahri yetakchilik qilmoqda. Keyingi pog'onani 9,4 % ulush bilan G'ijduvon va 9,1 % bilan Qorovulbozor tumanlari egalladi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas`ul:

O. Jabborov

Aloqa telefoni:

223-81-99, 0(371)230-83-10